



Ona tili darslarida ta'limiy va tarbiyaviy metodlarning uyg'unligi

Islomova E'zoza Yorqin qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti

3-kurs talabasi

Annotatsiya: O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili bo'lib, uning ta'lim muassasalarida o'qitilishi ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Yoshlarga ijodiy tafakkur, izlanuvchanlik, mavjud til imkoniyatlaridan samarali va o'rinli foydalanish ko'nikmalarini singdirish, ularni milliy qadriyat va an'analarga sodiqlik ruhida tarbiyalash Ona tili fanining murakkab, ayni paytda muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada Ona tili fanining ta'lim va tarbiya bilan uyg'unlikdagi metodlari tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: metod, ona tili, tushuntirish – namoyish etish metodi, qayta xotirlash metodi, muammoli bayon qilish metodi, bilimlarni tayyor holda bayon qilish metodi, muammoli ta'lim, qisman izlanuvchanlik.

Bugungi axborot texnologiyalari tinimsiz rivojlanayotgan yangi davrda innovatsion texnologiyalarga asoslanib, ta'limning dunyo standartlariga javob bera oladigan darsliklar yaratish asosiy talablardan biridir. Yurt ravnaqi uchun olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma'naviy sohalardagi islohotlar jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, mustaqil fikrlaydigan, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida" gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'limning barcha bo'g'inlarida ona tili o'qitishni ham tashkiliy, ham mazmuniy jihatdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Har sohada bo'lganidek, hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishining ilmiy tahlillari va grammatik tizimi, o'qituvchi - o'quvchi munosabatlari ham tubdan yangilanib bormoqda. Yangilangan Ona tili darsliklarining asosiy maqsadi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini chiroyli ifodalashiga xizmat qilishdan iboratdir.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Darsning saviyali tashkil etilishi





o'qituvchining o'qitish metodlarini mukammal bilishi, uni to'g'ri tanlay olishi va ularning har birini o'z o'rnida qo'llay olishiga bog'liq. O'quv chilarning psixologik holati, o'quv imkoniyatlarini hisobga olish, fan ta'limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to'g'ri belgilash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida pedagogik hamkorlikning o'rnatilishi, darsda qo'llanadigan vositalarning o'rinli tanlanishi samaradorlikni ta'minlash bilan aloqador.

Metod yunoncha so'z bo'lib, "tadqiqot" yoki "bilish yo'li" ma'nolarini ifodalaydi.¹ Bu tushuncha falsafiy va didaktik ma'nolarga ega. Falsafiy ma'noda tabiat va jamiyat hodisalarini kuzatish hamda voqelikka ilmiy nuqtayi nazardan yondashish demakdir. Didaktik ma'noda esa bu tushuncha o'quvchilarni bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirish yo'lini ifodalaydi. Ona tili darslarida tushuntirish, namoyish etish, muammoli bayon qilish, qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik, tadqiqot kabi metodlar yetakchi sanaladi.

Tushuntirish – namoyish etish metodida bilimlar o'qituvchi tomonidan tayyor holda beriladi. Tilning qonun-qoidalari tushuntiriladi va uni mustahkamlash maqsadida misollar keltiriladi. O'quvchilar bayon qilinayotgan fikrlarni tinglaydilar va xotirada saqlashga harakat qiladilar. 7-sinf Ona tili darsligidagi quyidagini misol qilish mumkin:

Olmoshlar so'z, so'z birikmasi, gaplar va matnlarga ishora qiladi, ularning o'rnida almashib kela oladi. Masalan, Salimning sochlari sariq, ko'zlari ko'k. U hecham o'zbekka o'xshamaydi gapida u olmoshi Salim o'rnida qo'llanmoqda. Asrora sahnaga chiqmadi. Bu Lola opaning jahlini chiqardi gaplarida esa bu olmoshi butun bir gapga ishora qilmoqda. Mazkur o'rinlarda olmoshlarning qo'llanishi nutqiy qisqalikka, ravonlikka va o'rinsiz takrorlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Bu metoddan til hodisalarining mohiyatini tushuntirish, o'quvchilar bilimidagi bo'sh tomonlarni to'ldirish, savollarga javob berish, murakkab va oldindan ma'lum bo'lmagan mavzuni tushuntirish maqsadida foydalaniladi. Ushbu metodda keltirilgan misollarning ilmiy, badiiy, tarbiyaviy yo'nalishda bo'lishini ta'minlash, o'rganilayotgan til hodisalarining asosiy tomonlariga diqqatni jalb qilish, mazvular orasida mustahkam bog'lanishlarni vujudga keltirish o'quvchining faollik darajasini oshiradi.

Muammoli bayon qilish metodida o'qituvchi o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi va ularning mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash orqali

¹ A. G'ulomov va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2012. 69-bet.





bu muammoni hal qilishga kirishadi. Ta'limning bu metodi o'quvchilar tomonidan o'quv materialining o'qituvchi rahbarligida mustaqil tahlil etilishi, kuzatilishi, guruhlanishi, umumlashtirilishi bilan ajralib turadi.

Faraz qiling, siz Oliy Majlis deputatisiz. E'tiboringizni qaysi muammoni hal qilishga qaratar edingiz? Nima uchun?

Ushbu muammoli savol 7-sinf darsligining "Oliy Majlis" bo'limida berilgan. Muammoli bayon qilish metodiga mansub ushbu savol o'quvchini fandan tashqari fikrlashga, bor tasavvur imkoniyatlarini ishga solishga, tafakkur qilishga o'rgatish orqali siyosiy jamiyatning muhim a'zosi sifatida fikr yuritishga undaydi. Bu metod shaxs va uning ijtimoiy faolligini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muammoli metodda til hodisalari tayyor holda o'zlashtirilmay, o'quvchi tomonidan izlanadi, ijodiy faoliyat ko'rsatiladi va natijada muammoli ta'lim izlanish va ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun imkoniyat yaratadi.

"Muammoli ta'lim" tushunchasi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda keyin paydo bo'lgan bo'lsa-da, izlanishga asolsangan g'oya tarixiy ildizga ega. Sharq donishmandlari bilish izlanish mahsuli ekanligini qayd etgan. Xususan, O'rta asrning buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino o'zining "Donishnoma" asarida qiyinchiliklarni yengish orqali bilimlarni egallash afzalligini ko'rsatgan.

Bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga, izlanish jarayonida o'zini namoyon etishga imkon beradi. A.M.Matyushkin : " Muammoli o'qitish ta'limning boshqa tizimlari va metodlariga tamoman zid emas. Uning xususiyatlari ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida – yangi bilimlarni o'rganish jarayonida – yangicha faoliyat ko'rsatish shartlari hamda usullarini o'rganish bilan xarakterlanadi" .

Til hodisalarini kuzatish tahlilning samarali shakli sanaladi. Bu usul orqali o'quvchilardagi mavjud bilimlar asosida noma'lum muammoni aniqlashni o'zlarining zimmasiga topshirish mumkin. Masalan, 9-sinf darsligidagi "Qoshma gaplar tasnifi" mavzusini o'tishda quyidagi topshiriqlar asosida muammoli vaziyat yaratiladi:

1. *Bog'langan qo'shma gaplarga misollar keltiring.*
2. *Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar bilan zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar o'rtasidagi farqni tushuntiring.*
3. *Ayiruv va inkor bog'lovchili qo'shma gaplarga misollar keltiring.*





Shuningdek, o'qituvchi darslikda berilgan matnning mazmunidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyat yaratishi ham mumkin:

KELAJAKDA ISHSIZ QOLMANG!

Bilasizmi, dunyo juda tez sur'atda rivojlanib, o'zgarib bormoqda. Mutaxassislarning aytishicha, yaqin kelajakda hozir mavjud kasblarning ko'pi keraksiz bo'lib qoladi va yangi kasblar paydo bo'ladi. Agar kelajakda ishsiz qolishni xohlamasangiz, hoziroq kasb tanlash masalasida jiddiyroq o'ylab ko'ring. Robot texnologiyalari biz kutgandan ham tezroq rivojlanmoqda. Ayrim zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish to'liq avtomatlashtirilgan. Ya'ni robotlar kuchidan foydalaniladi, odamlar esa deyarli ishlamaydi. Yaqin 20–30 yildan keyin esa robotlar hozir odamlar bajarayotgan ko'plab vazifalarni o'z zimmasiga olar ekan. Shuning uchun kasb tanlashda bu ishni kelajakda robotlar qila olishi yoki yo'qligi haqida ham o'ylab ko'ring. Kelajakda olimlarga, ayniqsa, fizika, matematika, astronomiya, kimyo, biologiya kabi soha mutaxassislariga ehtiyoj ortadi. Axborot texnologiyalari rivojlangani uchun dasturchilik eng daromadli kasbga aylanadi. Kompyuter va axborot texnologiyalari bilan bog'liq har qanday kasb egalari kelajakda yaxshi ish bilan ta'minlanadi. Kelajakda shifokor, o'qituvchi va murabbiylarga ham yaxshi oylik beriladi. Chunki bu kasblarni robotlar hech qachon egallay olmaydi. Ammo kompyuter grafikasining rivojlanishi tufayli kelajakda aktyorlarga ehtiyoj bo'lmasligi mumkin. Hatto bugun ham ayrim filmlarda aktyorlarning o'rnini kompyuter dasturi orqali yaratilgan qahramonlar egallab ulgurgan. Shuning uchun mashhur kino yulduzi bo'lishni orzu qilib yurgan bo'lsangiz, bu haqda qayta o'ylab ko'ring.

1. *Matn muallifi ushbu fikrlari orqali kimlarga murojaat qilmoqda?*
2. *Matnning asosiy maqsadi nimadan iborat?*
3. *Robotlarning asosiy vazifasi haqida gapiring.*
4. *Kelajakda qanday kasb egalari ehtiyoj ortishi kutilmoqda? Buning sababini tushuntirishga harakat qiling.*
5. *Aktyorlarning vazifasini kompyuterlar qay darajada uddalay oladi deb hisoblaysiz? Kompyuter dasturlarida yaratilgan qahramonlar faoliyatini qanday baholaysiz?*
6. *Tanlaydigan kasbingiz borasida kimlar bilan maslahatlashishni ma'qul ko'rasiz?*





7. *Matn bilan tanishganingizdan so'ng sizda tanlagan kasbingizni o'zgartirish fikri paydo bo'lmadimi? Javobingizni izohlang*

Qayta xotirlash metodida o'quvchi muayyan andaza asosida harakat qiladi. O'ziga xos xususiyati shundaki, o'quv topshirig'i egallangan bilimlarga asoslangan holda yoki berilgan namunaga qarab bajariladi. Bu esa o'quvchiga mashqni bajarishda osonchilik yaratadi. Masalan:

Quyidagi gaplarda yuklama qanday ma'no bildirayotganini aniqlang. Yuklamalar olib tashlanganda gap mazmunida qanday o'zgarish bo'layotganiga e'tibor qarating.

Namuna: *Raqib bu usuldan xabardor ekan-da. (ta'kid)*

1. *Bizni bu azobdan faqat direktorning qarori qutqarib qola oladi.*
2. *Ertangi o'yin uchun ham, ehtimol, Sobirov qaydnomaga kiritilmagandir.*
3. *Abduxoliq otasining naq o'zi.*
4. *Xafa bo'lma: seni ham o'zlari bilan olib ketishadi.*

Qisman izlanuvchanlik metodi. Bu metodda o'qituvchi dars jarayonida ma'lum o'quv muammosini qo'yadi. Ammo uni hal qilish yo'llarini ko'rsatmaydi. Har bir o'quvchi muammoni mustaqil hal etish uchun o'zi izlanadi. Izlanish vaqtida qiyinchilik bo'lganda unga yordam ko'rsatiladi. O'quvchi bu yordamni o'qituvchining tushuntirishidan, o'zaro suhbatdan yoki darslikdan oladi. Topshiriqni bajarish jarayonida olinadigan yordam metodni qisman ijodiy qiladi.

Quyidagi matnni berilgan savollar yordamida muhokama matniga aylantirib yozing.

Ko'p hollarda yong'in gaz plitasidan foydalanganda xavfsizlik qoidalariga amal qilmaslik oqibatida ham kelib chiqadi. Odatda qarovsiz qolgan qozondagi suyuqlik qaynab, toshib ketadi va olovni o'chirib qo'yadi. So'ng gaz butun oshxona bo'ylab tarqala boshlaydi. Bunday paytda hatto chiroqning yonishi sababli yong'in kelib chiqishi mumkin.

Foydalanish uchun:

- *Siz nima deb o'ylaysiz?*
- *Gaz plitasidan foydalanganda nimalarga e'tibor qilish kerak deb o'ylaysiz?*





- *Gaz plitasidan to'g'ri foydalana olmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?*
- *Ovqat pishirishni bilmaslik ham yong'inga sabab bo'lishi mumkinmi?*

Ta'lim, tarbiya va rivojlanish bir butun jarayondir. Ularni alohida, bir-biridan ajratgan holda amalga oshirib bo'lmaydi. Maktabda o'quvchilar tilning fonetikasi, leksikasi va grammatikasi yuzasidan zarur bilimlar bilan qurollantirilar ekan, ular ona tili imlosi, talaffuzi, yozma nutqda tinish belgilarini to'g'ri ishlatish yuzasidan zarur ko'nikma va malakalar bilan ta'minlanadi. O'quvchilar til hodisalarini o'rganish jarayonida ularga tarbiya beriladi, shaxsi rivojlantiriladi.

Ma'rifiy matnlar ta'lim, tarbiya va rivojlanishni ta'minlovchi muhim vositadir. Oan tili darslarida tanlanadigan matnlar mavzu jihatidan rang-barang bo'lsa, o'quvchilarning mavzuga qiziqishi oshadi. Masalan:

BIR HADIS HIKMATI

Hadis Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Faqat ikki narsadan boshqada hasad yo'q. (Birinchi) Alloh bir odamga mol-u dunyo bersa-yu, u o'shani to'g'ri yo'lda sarf qilsa, (ikkinchi) Alloh bir odamga ilm bersa-yu, u o'sha ilmi ila hukm chiqarsa va ta'lim bersa", – dedilar.

Sharh "Hasad" aslida boshqaga berilgan ne'matning zavolini orzu qilishni anglatadi. Bu gunoh hisoblanadi. Gohida "hasad" so'zi "havas qilish" ma'nosida, ya'ni boshqa kishiga berilgan ne'matni ko'rib, o'zida ham bo'lishini orzu qilish ma'nosida ham ishlatiladi. Bunga arablar "g'ibta" deydilar. Ushbu hadisi sharifdagi "hasad" so'zi ana o'sha g'ibta – havas qilish ma'nosida kelgan. Demak, faqat ikki narsadagina bironvga berilgan ne'matni ko'rib turib, o'ziga ham o'shanday ne'mat berilishini orzu qilish mumkin. "(Birinchi) Alloh bir odamga mol-u dunyo bersa-yu, u o'shani to'g'ri yo'lda sarf qilsa". Ya'ni "Menga ham Alloh shu odamga bergani kabi mol-u dunyo ato qilganida, men ham shu odamga o'xshab, uni yaxshilik yo'lida sarf qilar edim", deb havas qilsa bo'ladi. "(Ikkinchi) Alloh bir odamga ilm bersa-yu, u o'sha ilmi ila hukm chiqarsa va ta'lim bersa". O'sha odamga ham boshqa musulmonlar havas qilsa bo'ladi. Ilm bilan hukm chiqarish o'sha ilm taqozo etgan narsaga o'zi amal qilish va odamlarni ham shunga chaqirishdan iboratdir.

6-sinf darsligidagi ushbu ma'rifiy matnda mol-dunyoni to'g'ri yo'lda sarflashga, mol-dunyosi yo'q kishilar ham, agar mol-u dunyosi bo'lsa, yaxshilik yo'lida sarflashni orzu qilishlariga, ilmga amal qilib, uni odamlarga o'rgatishga, boshqalarni ham ilm olish, unga amal qilib, boshqalarga o'rgatishga targ'ib qilinadi.





Ona tili darslari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zlar ekan, bu prinsiplar uyg'un bo'lsa, darslarning samaradorligi yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilshunosligida mavjud bo'lgan barcha bilimlarni o'quvchiga yetkazishning iloji yo'q. Pedagoglar, asosan, o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan og'zaki va yozma nutqda bema'lol foydalanish, xatosiz yozish, ifodali o'qish, to'g'ri fikrlash va ravon so'zlash uchun zarur bo'lgan bilimlarnigina berish imkoniyatiga ega. Demak, maktab ona tili darsliklari o'quvchilarni ushbu malakalar bo'yicha o'ta zaruriy bilimlar tizimi bilan qurollantiradi. O'qituvchi tomonidan qo'llanadigan ta'limiy-tarbiyaviy metodlar esa dars samaradorligini, o'quvchilar qiziqishi va faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent – 2012.
2. To'xliyev B. va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent – 2006.
3. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent – 2005.
4. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2022.
5. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2022.
6. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2019.

